

ISSN: 2181-3558

«SCIENCE AND RESEARCH»

# JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION  
AND RESEARCH

---

INTEGRATSIYALASHGAN

TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF  
INTEGRATED  
EDUCATION AND  
RESEARCH**

**ISSN 2181-3558**

**VOLUME 2, ISSUE**

**COLLECTION D**

**AUGUST 2023**



*Tahririyat a'zolari*  
*Editorial board*

*Berdialiev A. f.f.d., prof.*  
*Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.*  
*Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.*  
*Babadjanova D. tarix.f.d., prof.*  
*Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.*  
*Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.*  
*Madumarov T.T. yur.f.d., prof.*  
*Mirzayeva S.R. fil.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.*  
*Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.*  
*Salayeva M.S. ped.f.d., prof.*  
*Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent*  
*Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent*  
*Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent*  
*Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent*  
*Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent*

*Achilov N.K. fil.f.d., dotsent*  
*Imomova G.M. fil.f.n., dotsent*  
*Zakirova H.R. f.f.n., dotsent*  
*Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik*  
*Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent*  
*Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent*  
*Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent*  
*Djuraeva M.Y. f.f.f.d.*  
*Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent*  
*Otadjanova M.O. f.f.d.*  
*Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Hasanov A.M. fil.f.f.d.*  
*Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent*  
*Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent*  
*Safarova U.A. fil.f.d., dotsent*  
*Dexqonova M.Sh. f.f.d.*  
*Hasanov A.M. fil.f.d.*

*Mas'ul kotib: M.Yusupov*

## TURLI MUDDATLARDA SHOLINI KO'CHAT USULIDA EKILGANDA O'SISH DINAMIKASI VA POYASINING BALANDLIGI

*Q.O'razmetov*

*TDAU O'simlikshunoslik kafedrasi dotsenti*

*A.Shermatov*

*TDAU magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada turli ekish muddatlari tuproqning mexanik tarkibi, sizot suvlarining joylashish chuqurligiga bog'lik xolda o'zgarishi mumkin. Shunga kura bir xo'jalikning o'zida ham ekinlar dala sharoiti hisobga olinib turli muddatlarda ekilishi mumkin. Sholi erta muddatlarda ekilsa maysalar biroz siyrak chiqadi, lekin o'simliklar mahsuldor bo'lib yetiladi va mo'l hosil olinadi, hosili erta yetiladi. Olib borilgan tajribada sholining Tarona navi poyasining nazorat navga nisbatan 3-4 sm baland bo'lganligi aniqlandi

**Kalit so'zlar:** tuproq, sholi, o'g'it, maydon, ekologik qulay shariotlar.

**Annotation.** According to the article, different sowing dates may vary depending on the mechanical composition of the soil and the depth of seepage. Therefore, crops can be sown at different times, taking into account field conditions, even in the same farm. If rice is sown early, there will be little grass, but the plants will grow productively, and the harvest will be plentiful, and the harvest will ripen early. In the experiment, it was found that the stalk of rice of the Tarona variety was 3-4 cm higher than the control variety.

**Key words:** soil, rice, fertilizer, field, environmentally friendly sharia

**Аннотация.** Согласно статье, разные сроки посева могут меняться в зависимости от механического состава почвы и глубины просачивания. Поэтому посеvy можно сеять в разные сроки с учетом полевых условий даже в одном хозяйстве. Если рис посеять рано, то травы будет мало, но растения вырастут продуктивно, и урожай будет обильный, и урожай созреет рано. В проведенном опыте установлено, что стебель риса сорта Тарона был выше контрольного сорта на 3-4 см.

**Ключевые слова:** почва, рис, удобрения, поле, экологически чистый шариат.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda sholini ko'chat usulida yetishtirish keng ommalashib bormoqda. Yer yuzidagi barcha sholi maydonlarining 95%ida sholini ko'chat usulida yetishtiriladi.

Asosiy sholi yetishtiruvchi Yaponiya, Koreya, Xitoy, Hindiston, Italiya, Ispaniya singari Yevropa mamlakatlarida sholini ko'chat qilib yetishtirish uchun seriyali maxsus mashina-mexanizmlar shunday turli-tuman rusumlarda ishlab chiqarilgan.

Keyingi yillardagi mamlakatimiz tabiatida ro'y bergan qattiq qurg'oqchilik sholichiligimizga jiddiy zarar yetkazib, bu soha oldida juda ko'p muammolarni keltirib chiqardi. Bunda jami ekiladigan sholi maydonlari o'rtacha 150 ming

gektardan 100 ming gektarga tushib qoldi hamda yalpi mahsulot yetishtirish keskin kamayib favqulodda choralar ko'rilishini taqozo etdi va ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlarida ham tub burilishlar, muhim o'zgartirishlar kiritilishi talab etildi.

Respublikamizda ham sholini ko'chat usulida yetishtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari: Ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya va dala tajribalarini qo'yish, biometrik o'lchash, fenologik kuzatishlar «Metodika Gosudarstvennogo sortoispytaniya selskoxozyaystvennykh kultur», «Metody agrokhimicheskix analizov pochv i rasteniy», «Metody agrofizicheskix issledovaniy», «Dala tajribalarni o'tkazish uslublari» kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Dala tajribalarda olingan natijalarining dispersion va statistik tahlillari Microsoft Excel dasturlari yordamida B.A.Dospexov bo'yicha hisoblangan.

Tadqiqot natijalari: O'simliklar ontogenezini tavsiflovchi eng muhim jarayonlar – o'sish va rivojlanish hisoblanadi. Ushbu ikki ko'rsatkich o'simliklar tanasidagi barcha hayotiy reaksiyalarning natijasi hisoblanib, bu jarayonlar bir-biriga uzviy bog'liqdir. Bunda o'sish va rivojlanish umumiy bir yaxlitlikni tashkil etib, o'simlik tanasida kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlarga, o'simlikning ildiz orqali va havodan oziqlanishiga, energiya bilan ta'minlanishiga, umuman, assimilyatsiya va dissimilyatsiyada ishtirok etuvchi barcha jarayonlar yig'indisiga bog'liq bo'ladi [1, -17-22 b.].

Sholining vegetatsiya davri bir necha muddat fazalarga bo'lib o'rganiladi hamda ana shu fazalarning me'yoriy kechishi uchun ma'lum haroratda, suv sharoitlari, o'g'itlash va boshqa agrotexnik ishlar olib boriladi. Shuning uchun ekish muddatlarini belgilashda ob-havo, iqlim sharoitlari hisobga olinib, gullash fazasi to'g'ri keladigan vaqtga rioya etilishi talab qilinadi. Har qanday holatda ham sholining gullash fazasida o'rtacha havo harorati 30°S dan oshgan davrga to'g'ri kelmasligi kerak va shundagina changlanish to'liq yuz beradi. Bu shart buzilsa changlanish to'liq yuz bermaydi va natijada hosil kamayadi. Bunda juda yuqori havo haroratida otalik changdonlari qurib qoladi, onalik tuxumchasi so'lib, plazmoliz holati yuz beradi va changni to'liq qabul qilolmaydi. Natijada ko'zlangan sholi hosilini olib bo'lmaydi. Havo namligi juda yuqori bo'lsa gulini ochilishiga to'sqinlik qiladi va bundan tashqari yuqori namlik changdonlarini to'liq yorilishiga ham imkon bermaydi va ayrim hollarda umuman changdonlar ochilmay qoladi va changlanish yuz bermaydi. Havoning o'ta quruqligi o'ta namlikka nisbatan kamroq zararli bo'lsada, namlik 50 foizdan kam holatlarda ham gullar ochilishi yuz bersada, changlanish yuz bermaydi. Namlik 70 foizdan kam bo'lsa, ayniqsa 65 foiz kam bo'lsa, changlanish darajasi keskin kamaya boshlaydi. Chunki bunda onalik tumshuqchasi so'lib, qurib qoladi va changni qabul qilolmaydi.[2, -23-25 b.]

Shu bilan birga [3, -30-33 b.] tomonidan o'simlikning o'sish va rivojlanish dinamikasiga meteorologik, agrotexnologik, tuproq, suv va boshqa bir necha omillarning ta'siri ham katta. Ushbu omillarning sholi o'simligini o'sib rivojlanishiga bog'lab, turli davrlarda bir qancha izlanishlar olib borilgan.

Sholini ko'chat usulida turli muddatlarda ekilganda o'simlik poyasining balandligiga ta'siri o'rganilganda, Sholining Lazurniy navini urug'larini kassetaga birinchi aprelda ekib dalaga o'ttinchi aprelda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 73 smga, kassetaga o'ninchi aprelda ekib dalaga o'ninchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha va kassetaga yigirma beshinchi aprelda ekib dalaga yigirmanchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 79 smgacha o'sib nazoratga nisbatan 4 smga yuqori bo'ldi.

Nav	Ekish muddatlari		Rivojlanish fazalari (sm)			
	dalaga	kassetaga	Tuplanish	Naychalash	Ruvaklash,	Gullash, pishish
Lazurniy	30.04.	01.04. (st)	35	68	104	108
	10.05.	10.04.	39	74	112	118
	20.05.	25.04.	40	81	113	119
Tarona	30.04.	01.04. (st)	34	72	117	124
	10.05.	10.04.	43	84	127	136
	20.05.	25.04.	45	87	129	139

Sholining Tarona navini urug'larini kassetaga birinchi aprelda ekib dalaga o'ttinchi aprelda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 90 smga, kassetaga o'ninchi aprelda ekib dalaga o'ninchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 93 smga va kassetaga yigirma beshinchi aprelda ekib dalaga yigirmanchi mayda ko'chatini ekilganda tuplanish fazasidan pishish fazasigacha 94 smgacha o'sib nazoratga nisbatan 3-4 smga yuqori bo'ldi.

Xulosa: Turli muddatlarda sholini ko'chat usulida ekilganda sholi o'simligining poya balandligiga sezilarli ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Bunga ko'ra sholi ko'chatini dalaga may oyining 10-20 may kunlari dalaga ekilganda nazoratga nisbatan 3-4 smga yuqori bo'lganligi qayd etildi.

Sholi navlari	Ekish muddati		Rivojlanish fazalari						
	kassetaga	dalaga	Unib chikish	May salash	Tup lash	Nay chalash	Ruvak lash	Gullash	Pishish
	01.04.	30.04.	14/04.	3/05.	7/06.	1/07.	13/07.	18/07.	27/08.
	10.04.	10.05.	23/04.	12/05.	15/06.	10/07.	23/07.	28/07.	6/09.
	20.04.	20.05.	1/05.	20/05.	24/06.	20/07.	1/08.	7/08.	13/09.
	01.04.	30.04.	14/04.	2/05.	14/06.	5/07.	23/07.	29/07.	6/09.
	10.04.	10.05.	22/04.	11/05.	22/06.	13/07.	31/07.	7/08.	15/09.
	20.04.	20.05.	1/05.	19/05.	30/06.	22/07.	8/08.	15/08.	20/09.

---

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Djumanov Z.N. nekotorye osobennosti agrotexniki risa sorta Tolmas. Sb. nauch.tr.// Puti regulirovaniya i problemy povysheniya effektivnosti risovodstva v Uzbekistane. Tashkent. 1990, s.17-22.
2. Sholichilik ilmiy tadqiqot instituti 2007-2012 yillardagi hisobotlari 23-25 b
3. Kirichenko K.S., Djulay A.P., Kosenko I.S. "Kultura risa" Krasnodar 1939 g s 30-33

## SHOLI TUPLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

*Q.O'razmetov*

*Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti*

*A.Shermatov*

*Toshkent davlat agrar universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** O'simlikning serpoya bo'lishida tuplanishning ahamiyati katta, lekin o'simlikning me'yoriy qalinlikda bo'lishida tuplanish yordamchi omil hisoblanadi. Agar ekish me'yori kam bo'lganligi natijasida maysalar siyrak chiqsa, ular ular qanchalik sertup bo'lmasin baribir ko'zlangan hosilni qoplay olmaydi. O'zbekiston sharoitida gektariga 5-7,5 mln dona sholi ekilganda ya'ni, har m<sup>2</sup> yerda o'ringa qadar 250-350 tup atrofida o'simlik va 450-500 ta ruvakli poya bo'lgan taqdirda sholidan mo'l hosil olingan. O'rganilayotgan istiqbolli kechpishar Mustaqillik navida nazorat navi (UzROS 7/13) va ekish muddatiga (25 aprel) nisbatan 5 mayda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda haqiqiy tuplanish 2,9 foizni tashkil qilib, gektaridagi o'simliklarning qalinligini 4.47 mln. donaga oshirish imkoniyatini berilishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** tuproq, sholi, o'g'it, maydon, oziq-ovqat, agrotexnika.

**Annotation.** Clumping is of great importance for the plant to be tall, but it is an auxiliary factor for the plant to have a normal thickness. If the lawns are sparse as a result of the low planting rate, they will not be able to cover the intended harvest, no matter how hard they are. In the conditions of Uzbekistan, when 5-7.5 million pieces of rice are planted per hectare, i.e., if there are about 250-350 plants and 450-500 stalks on each m<sup>2</sup> of land before harvest, an abundant harvest of rice is obtained. . Compared to the control variety (UzROS 7/13) and the planting date (April 25) in the studied promising evening primrose variety Independence, 4 million per hectare is 5 May. When planted at the rate of grain, the actual accumulation is 2.9 percent, and the thickness of plants per hectare is 4.47 million. it was determined that the unit will be given the opportunity to increase.

**Key words:** soil, rice, fertilizer, field, food, agrotechnics.

**Аннотация.** Комкование имеет большое значение для того, чтобы растение было высоким, но является вспомогательным фактором, чтобы растение имело нормальную толщину. Если газоны изрежены в результате низкой нормы посадки, они не смогут покрыть намеченный урожай, как бы сильно они ни были. В условиях Узбекистана при посеве 5-7,5 млн штук риса на гектар, т. е. при наличии до уборки на каждом м<sup>2</sup> земли около 250-350 растений и 450-500 стеблей, получают богатый урожай риса. . По сравнению с контрольным сортом (УзРОС 7/13) и сроком посева (25 апреля) у изучаемого перспективного сорта примулы вечерней Независимость 4 млн/га на 5 мая. При посеве по норме зерна фактическое накопление составляет 2,9%, а толщина растений на гектар — 4,47 млн. шт. было определено, что агрегату будет предоставлена возможность увеличения.

**Ключевые слова:** почва, рис, удобрения, поле, еда, агротехника.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida sholi ishlab chiqarishi bo'yicha yirik davlat hisoblanib, 2016 yilda sholi ekinni ekilgan maydon 94.3 ming ga, yalpi hosili esa 346.3 ming tonnani tashkil qilgan. Aholi jon boshiga sholi mahsulotlarini ishlab chiqarish 10,8 kg ga yetdi, bu esa O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tavsiya etadigan yillik iste'mol qilinadigan eng kam me'yordan (9,8 kg) 1 kg ga oshiqdir.

Mamlakatimizda aholini oziq-ovqat, mahsulotlari xususan sholi mahsulotlari bilan ta'minlashga katta ahamiyat beriladi. Bizning mamlakatimiz aholi jon boshiga sholi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yuqori rivojlangan davlatlardan qolishmaydi. Ammo, mamlakatimizning aholisi soni tobora ortib borayotgan, global iqlim o'zgarishlari tufayli harorat ko'tarilib, ayrim hududlarda yog'ingarchilik ko'payib, ba'zi joylarda esa kuchli qurg'oqchiliklar kuzatilayotgan hozirgi sharoitda sholi ekinlaridan mo'l va sifatli hosil yetishtirish tobora qiyinlashib bormoqda. Bu kelgusida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasi yanada murakkab bo'lishidan dalolat beradi. Bu masalani yechishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng ustuvor yo'nalishlardan biri dehqonchilik mahsulotlari Respublikada sholini ham tuproq-iqlim sharoiti va navlarning biologik hususiyatlarini hisobga olgan holda sholi navlarini sifatli yetishtirish agrotexnikasini, sholi hosildorligini oshirishga, yangi navlar yaratish bilan bir qatorda dunyodagi ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, har bir gektar maydondan samarali foydalanish usullarini mukammal ishlab chiqish zarur.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya va dala tajribalarini qo'yish, biometrik o'lchash, fenologik kuzatishlar «Metodika Gosudarstvennogo sortoispytaniya selskoxozyaystvennykh kultur», «Metody agroximicheskix analizov pochv i rasteniy», «Metody agrofizicheskix issledovaniy», «Dala tajribalarni o'tkazish uslublari» kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Dala tajribalarda olingan natijalarining dispersion va statistik tahlillari Microsoft Excel dasturlari yordamida B.A.Dospexov bo'yicha hisoblangan.

Shuning uchun ham agrar sohani isloh qilish, uni zamonaviy, zararsiz texnologiyalar bilan ta'minlash barcha mamlakatlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonda sholichilikni keskin rivojlantirish va bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, ilg'or texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish zarur.

Tadqiqot natijasi.

Sholining ildizlari o'sish uzunligi, ildizlar soni, yosh o'simliklarning balandligini kuzatishgan. Urug'larni undirib ekilganda o'simliklar 20 maydan 27 iyulgacha tez o'sgan, tuplanish va ro'vak chiqarish erta boshlangan, tuplanish bo'g'ini esa ancha pastda joylashgan. Ammo ekish me'yori va o'simlik qalinligi yuqori bo'lganligi sababli uzoqqa cho'zilmagan. Ro'vak qalinligi 5387 ming/ga,

ro'vaklardagi don soni – 76,8 dona, 1000 dona urug' massasi – 24,6 g ni tashkil etgan. [4, -184-188 b.; 5, -267-270 b.; 6, -113-123 b.].

Urug' sifatini belgilovchi eng asosiy ko'rsatkich urug' unuvchanligi va urug' unib chiqish energiyasi hisoblanadi. Ko'p yillik o'tkazilgan tajribalarda, dala sharoitida urug' unuvchanligi 42-99 foizni tashkil etgan. Shunga asoslanib, urug' unuvchanligiga faqatgina urug' sifati emas, balki tuproq-iqlim sharoiti, havo haroratini ta'sir etishini bildiradi. Urug'lik maydonlarida tuplanish darajasi ortishi urug' shakllanishi va pishish jarayonini har xil muddatda o'tishiga olib keladi. Natijada yetishtirilgan urug'lik har xil bo'lib, uni ekish sifati pasayadi.

Urug'ning fiziologik yetilishi o'simliklardagi muhim biologik hususiyat hisoblanadi. Birinchidan noqulay sharoitlarda urug'larni saqlab qolishiga, ikkinchidan esa optimal sharoitda unib chiqib yuqori va sifatli hosilni ta'minlashiga imkon beradi. [1, -282 b. ].

Sholining har bir navning rivojlanishi, tuplanish qobiliyati tuproq sharoitini hisobga olinib muqobil ko'chat ekish ya'ni har 1 m<sup>2</sup> maydonda 250-300 ta hosildor poyalar bo'lishini ta'kidlagan. Ekish muddatini va ekish me'yorini to'g'ri belgilash shuning uchun ham muhimki, bunda o'simlikning morfobiologik rivojlanishi mo'tadil bo'lib o'simlik o'zining barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi va hosildorligi eng yuqori bo'ladi. Uzoq yillik laboratoriya va amaliy kuzatishlardan shu narsa aniqlanganki, ekish muddatlaridagi o'zgarishlar o'simlikning vegetatsiya davriga va hosildorligiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. [2, -68 b.].

Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoiti (markaziy va shimoliy) kechpishar sholi navlarini turli muddat va me'yorlarda ekish ularni tuplanishiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Toshkent viloyati sharoitida har bir muddat bo'yicha 1 m<sup>2</sup> maydondagi o'simliklar soni unib chiqishi UzROS 7/13 (st) navida 25 aprelda (st) gektariga 4 mln. dona ekilganda – 219 dona, 5 mln. donada – 274 dona va 6 mln. donada (st) – 325 donani tashkil qilgan bo'lsa, nazorat variantga nisbatan, 5 mayda gektariga 4 mln. dona ekilganda – 1 donaga, 5 mln. donada – 2 donaga va 6 mln. donada – 3 donaga ko'paygani aniqlandi. Biroq, nazoratga nisbatan 15 mayda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda – 2 donaga, 5 va 6 mln. donada – 3 donaga kamayganligi ma'lum bo'ldi.

Urug'ni qalinroq sepish hosilni ma'lum darajada oshiradi. 1973 yilda o'tkazilgan tajribalarda ko'chatlar nisbatan qalin bo'lgan ya'ni gektariga 6 mln dona urug' ekilgan maydonlarida eng yuqori (63,7 s/ga) hosil olingan. O'zbekiston sharoitida gektariga 5-7,5 mln dona sholi ekilganda ya'ni, har m<sup>2</sup> yerda o'ringa qadar 250-350 tup atrofida o'simlik va 450-500 ta ruvakli poya bo'lgan taqdirda sholidan mo'l hosil olingan. Sholidan har gektar maydondan optimal miqdorda o'simlik bo'lishi nihoyatda muhimdir. Ekish me'yorini va o'ringa qadar saqlanib qolgan o'simliklarning soni xususan shu ko'rsatkich bilan belgilanadi. O'simlikning serpoya bo'lishida tuplanishning ahamiyati katta, lekin o'simlikning me'yoriy qalinlikda bo'lishida tuplanish yordamchi omil hisoblanadi. Agar ekish me'yori kam bo'lganligi natijasida maysalar siyrak chiqsa, ular ular qanchalik sertup bo'lmasin baribir ko'zlangan hosilni qoplay olmaydi. Binobarin ekish

me'yor bilan belgilanadigan ko'chat qalinligiga erishilgan taqdirdagina sholidan mo'l hosil yetishtirish mumkin [3, -165-166 b.]

Ekish me'yor oshirib borilishi bilan o'simlikning tuplanishi, mahsuldorligi, 1000 urug' massasi kamayadi, ammo hosildorlik ortishi mumkin. Bunday holda hosil asosan bosh poya hisobidan shakllanadi, donlar bir tekis bo'ladi. Siyrak ekinlarda tuplanish kuchayadi, ikkinchi va navbatdagi poyalar hosil bo'ladi. Ularda don soni, 1000 urug' massasi kam bo'ladi, ammo bitta o'simlikning mahsuldorligi ortadi. Eng sifatli urug' maksimal hosil shakllanishigacha hosil bo'ladi.

Tuplanish fazasi 3-4 bargdan to 8-9 barg chiqquncha 25-30 va undan ortiq kun davom etadi. Sholi kuchli darajada tuplanish xususiyatiga ega bo'lib, bu undan yuqori hosil olishini ifodalaydi. Tuplanishga o'simliklarning tup qalinligi ta'sir etadi. Tuplanish fazasining birinchi yarimida, qo'shimcha ildizlar tez o'sadi.

O'rganilayotgan istiqbolli kechpishar sholining Mustaqillik navi 1 m<sup>2</sup> maydondagi o'simliklar soni unib chiqishi UzROS 7/13 (st) naviga nisbatan 25 aprelda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda – 3 donaga, 5 mln. donada – 7 donaga va 6 mln. donada – 6 donaga, 5 mayda gektariga 4 mln. dona ekilganda – 4 donaga, 5 mln. donada – 5 donaga va 6 mln. donalarda – 3 donaga, 15 mayda gektariga 4 mln. dona ekilganda – 7 donaga, 5 va 6 mln. donalarda – 10 donaga ko'paydi (1-jadval).

1-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, sinalayotgan kechpishar sholining UzROS 7/13 (st) va Mustaqillik navlarining o'rimdan oldingi 1 m<sup>2</sup> maydondagi o'simliklar soni aniqlash shuni ko'rsatdiki, unib chiqishdagi o'simliklar soniga nisbatan UzROS 7/13 (st) navida nazorat ekish muddatida (25 aprel) gektariga 4, 5 va 6 (st) mln. dona me'yorida ekilganda 5, 72 va 49 donagacha, 5 mayda – 69, 72 va 36 donagacha hamda 15 mayda – 65 donadan 27 donagacha tuplanish kamayganligi ma'lum bo'ldi.

O'rganilayotgan kechpishar sholining Mustaqillik navi nazorat naviga (UzROS 7/13) nisbatan o'rimdan oldingi 1 m<sup>2</sup> maydondagi o'simliklar soni unib chiqishdagi o'simliklar soniga nisbatan 25 aprelda gektariga 4, 5 va 6 mln. dona me'yorida ekilganda 5, 72 va 49 donagacha, 5 mayda – 69, 72 va 36 donagacha hamda 15 mayda – 65 donadan 27 donagacha tuplanish kamayganligi ma'lum bo'ldi.

1-jadval

*Toshkent viloyati sharoitida kechpishar sholi navlarining ekish muddatlari va me'yorlarini o'simliklarning tuplanishiga ta'siri (2022-2023 yy.)*

Sholi navlari	Ekish muddati	Ekish me'yor, mln. dona/ga	1 m <sup>2</sup> da o'simliklar soni			Haqiqiy tuplanish, %
			unib chiqishda	o'rimdan oldin	jami	
UzROS 7/13 (st)	25 aprel (st)	4	219	147	393	2,7
		5	274	202	404	2,0
		6 (st)	325	276	333	1,2
	5 may	4	220	151	422	2,8
		5	276	204	421	2,1
		6	328	292	363	1,2

	15 may	4	217	152	364	2,4
		5	271	206	371	1,8
		6	322	295	327	1,1
Mustaqillik	25 aprel	4	222	152	442	2,9
		5	281	208	437	2,1
		6	331	283	337	1,2
	5 may	4	224	157	447	2,9
		5	281	213	414	1,9
		6	331	292	347	1,2
	15 may	4	224	152	329	2,2
		5	281	204	342	1,7
		6	332	299	322	1,1

Kechpishar sholi navlarining ekish muddati va me'yorini o'simlik-larning haqiqiy tuplanishi barcha variantlarda 1,1 foizdan 2,9 foiz oralig'ida bo'lib, eng yuqori haqiqiy tuplanishni UzROS 7/13 (st) navini nazorat ekish muddatiga nisbatan 5 mayda gektariga 4 mln. dona ekilgan 2,9 foizni tashkil qilib, bu o'z navbatida gektarida o'simliklar qalinligi 4.12 mln. donani bo'lishini ta'minlar ekan.

O'rganilayotgan sholining kechpishar Mustaqillik navida nazorat navi (UzROS 7/13) va ekish muddatiga (25 aprel) nisbatan 5 mayda gektariga 4 mln. dona me'yorida ekilganda haqiqiy tuplanish 2,9 foizni tashkil qilib, gektaridagi o'simliklarning qalinligini 4.47 mln. donaga oshirish imkoniyatini berilishi aniqlandi.

Xulosa Toshkent viloyati sharoitida kechpishar sholi navlarini erta muddatlarda va 5 mln dona unuvchan urug' hisobiga ekilganda yuqori va sifatli hosil olishning maqbul ekish muddatlariga amal qilish (aprelning 3-chi dekasi va mayning 1-chi dekasi) maqsadga muvofiq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «2002 yilda sholi ekiladigan maydonlar va sholi yetishtirish xajmlari tugrisida» 2002 yil 22 apreldagi 134-sonli karori va shu karor asosida Qishloq va Suv xo'jaligi Vazirligining 2002 yil 1 maydagi 75-sonli buyrug'i.
2. Yerıgin P.S. Fiziologiya risa. M.: Kolos-1981. S 282.
3. Kovalev B.C., Malısheva N.N., Alekseenko Ye.V. i dr. Perspektivnaya resurs osberegayushaya texnologiya proizvodstva risa. M.:FGNUR osin forma grotex.- 2009. - s 68.
4. Chirkov V.N va boshqalar. Sholichilik, T.:O'qituvchi,- 1977. 165-166 b
5. Kumar V.J.F., Balasubramanian M., Jesudas D.Manohar "Application of different forms of urea for rice" J. Indian Soc. Soil Sci. N 2, 1996, t.44, P.267-270
6. Saigusa Masahiko, Hossain Zahid, Sato Tokuo, Shibuya Kyoichi "Establishment of cultivation methods of Hitomebore rice in cold regions " Tohoku J. Agr. Res. N 3-4, 1996, t.46, P.113-123

## АСАЛАРИЛАР БИЛАН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ЭКИНЛАРИНИ ЧАНГЛАТИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА САМАРАДОРЛИГИ

*Ғ.А.Менглиев*  
доцент.

*О.Ш.Ғойибов*  
катта ўқитувчи.

*М.Авлиёқулов., Н.Тўхтамишов*  
ўқитувчи

*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,  
човачилик ва биотехнологиялар университети Тошкент филиали*

**Аннотация.** Ушбу мақолада асалар билан қишлоқ хўжалик экинларини чанглантишнинг фойдали жihatлари ҳамда асалар билан чанглантиш усуллари ва натижалари ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** чанглантиш, асалари, гулчанг, ўсимлик дунёси, кенглик, узунлик, схема.

**Абстрактный.** В этой статье представлена информация о полезных аспектах пчелоопыления, а также о методах и результатах пчелоопыления.

**Ключевые слова:** опыления, пчел, пыльца, мир растений, ширина, дилина, схема.

**Abstract.** This article provides information on the beneficial aspects of bee pollination, as well as the methods and results of bee pollination.

**Key words:** opylenia, bee, pyltsa, mir plant, sweet, dilina, scheme.

**Кириш.** Ривожланаётган қишлоқ хўжалигида экинларнинг ҳосилдорликни ошириш ҳамда хавфсиз озиқ-овқат маҳсулотларини етиштириш бевосита асаларичиликка боғлиқ бўлади. Асаларилар ўзининг ўсимликларни чанглантиш фаолияти туфайли тирик табиатдаги биоценозларга жиддий таъсир кўрсатади.

Бутун сайёрада мавжуд ўсимликлар оламининг 80 фоизи четдан чангланиши олимлар томонидан исботланган, шундан 78 фоизини асаларилар чанглантишини эътиборга оладиган бўлсак, бундан кўриниб турибдики ўсимлик дунёсини сақлаб қолишнинг асоси бу асалариларни кўпайтиришдир.

Асаларилар билан чанглантиш агротехникасини жорий қилиш бугунги қишлоқ хўжаликни ривожлантиришнинг асоси ҳисобланади. Чунки аграр соҳа ривожланган давлатларда ушбу агротехника кенг қўлланилади. Чет эл тажрибаларига кўра АҚШнинг Калифорния штатида 400 минг гектар бодом асаларилар ёрдамида чанглантирилганда ҳосилдорлик гектарига 2-2,5 тоннага етказилган. Худди шундай Германия, Туркия, Россия, Украина ва бошқа қишлоқ хўжалик ривожланган давлатларда ҳам асаларилар билан чанглантиш

агротехникаси кенг жорий қилинган ҳамда чанглатиш учун асаларилар оиласи сонини кўпайтириш чоралари кўрилмоқда.

Республикамизда ҳам ушбу агротехник тажрибаларни жорий қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 12 июндаги 239-сонли “Асаларичилик тармоғини қўллаб-қувватлаш ва қишлоқ хўжалиги экинларини асаларилар билан чанглатишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” Қарори қабул қилинди. Қарорга кўра Республикада асаларичилик тармоғини замонавий илмий ёндашувлар асосида ривожлантириш, асаларичилик фаолиятини самарали ташкил этиш учун янада қулай шароитлар яратиш, қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини оширишда уларни асалари билан чанглатиш амалиётини кенг жорий қилиш белгилаб қўйилди. Бундан кўриниб турибдики асаларилар билан чанглатиш қишлоқ хўжалигида ҳосилдорлик оширишнинг ҳамда сифатли маҳсулот етиштиришнинг гарови ҳисобланади. Шу мақсадда биз асаларилар билан қишлоқ хўжалик экинларни чанглатишнинг аҳамияти ва самарадорлигини ўрганиб чиқдик.

Асосий қисм. Чанглатиш-чангларни уруғчи тумшукчасига (гулли ўсимликларда) ёки уруғ куртакга (очик уруғларда) тушуши. Уруғланган тухум хужайраларида муртак ривожланади. Гуллайдиган ўсимликларда чангланиш четдан ва ўз-ўзидан содир бўлади.

Қишлоқ хўжалик экинларидан юқори ва сифатли ҳосил олинишини таъминлайдиган барча агротехник тадбирлари мажмуининг бир қисмида чанглатиш ҳам муҳим роль ўйнайди. Асаларилар билан чанглатишнинг устун жиҳати уларни режа асосида қишлоқ хўжалик экинларининг гуллаши маълум бир муддатга тўғри келганлиги ҳамда гуллар даврийлигини инобатга олган ҳолда йўналтириш имкониятлари ва гулларга қўниш сонини кўплиги билан бошқа чанглатувчиларга нисбатан катта аҳамиятга эга. Қишлоқ хўжалик экинларини асаларилар билан чанглатиш асалари оилаларини сони, чангланадиган экин майдони, асалари оиласи кучи, атрофдаги чалғитувчи асал берувчи ўсимликларнинг борлиги, экинларни етиштиришда барча агротехник усуллар бажарилганлигига боғлиқ ҳолда юқори самара беришини унутмаслик керак.

Асаларилар ёрдамида экинларни чанглатиш ва ҳосилдорлигини оширишнинг қуйидаги усуллар мавжуд:

-асалариларни ҳоҳлаган ўсимликга боришни таъминлаш учун уларда маълум бир рефлексни ишлаб чиқиш керак. Бунинг учун махсус шарбатга (1 қисм шакар, 2 қисм сув) чанглатиладиган ўсимликни чангчиси билан олинган гулини солиш керак ва тун бўйи қолдирилиши шарт. Тонгда асаларилар учиб чиқишидан олдин ҳар бир оила тайёрланган шарбатдан 200 гр ҳисобида озиклантириш керак.

-асалариларни маълум бир жойдаги экин турини чанглатишга ўргатиш. Асалари оиласи уяга қайтгандан сўнг уяга махсус шарбат қўйилади, эрталаб қолган шарбат қолдиғини чанглатиш учун мўлжалланган майдон ўртасига устига дока ёпган ҳолда қолдирилади. Учиб чиққан асалари хабарчилари

шарбат қаердагилигини уядаги қолган ишчи асалариларга хабар беради, шу тариқа бир неча кун такрорланса асалари оиласи белгиланган жойга борадиган бўлади.

-асалари уясига кириш қисмига (литок) махсус гулчангни ушлаб қоладиган махсус жиҳоз ўрнатиш орқали асаларилар олиб келган гулчангни олиб қолиш орқали, уларни яна гул олиб келиш учун чиқиб кетишга мажбур бўлади.

-чанглантариш учун мўлжалланган экин майдонига асалари оиласини меъёрга нисбатан зич қилиб жойлаштириш орқали, масалан ғўзани чанглатиш учун 2-4 дона асалари оиласи керак бўлса уларни 2 баравар кўпайтириш.

-чангланувчи экин майдонларини оптимал муддатларини ишлаб чиқиш. Бунда ўсимликларнинг биологик ва физиологик хусусиятларини, ўсиш, гуллаш ҳамда шира ажратиш даврларини, ташқи харорат ва бошқалар инобатга олинади.

-чанглантурувчи асалари оилаларини ҳар 5-7 кунда алмаштириб туриш.

-асалари оилаларини чангланувчи экин турлари ва контурларига боғлиқ ҳолда илмий асосда жойлаштириш.

Тажрибалар. Пахта ва кунгабоқарни асаларилар ёрдамида чанглатишнинг самарадорлиги.

Экин майдонида бажарилган агротехник тадбирларнинг бир хиллиги қараб тахминан 2 та майдон танлаб олинади, танланган майдонлар имкон қадар бир-бирига яқин бўлиши керак. Танланган майдоннинг бирига асалари оилалари яқин олиб келинмайди, бу майдон назорат майдони ҳисобланади. Иккинчи майдонга асалари оилалари (100 метрдан узоқ бўлмаган жойда) келтирилиб жойлаштирилади. Экин турига қараб тажриба майдоннинг 1 гектарига жойлаштириладиган асалари оилалари тадқиқот вазифасига қараб белгиланади.

Бошқа ҳолатда асалари оилалари катта майдонларнинг қисқа ва энсиз томонига жойлаштирилади. Майдоннинг асалари оилалари яқин жойлашган томони тажриба, узоқ бўлган томони назорат майдони сифатида қабул қилинади.

Турлича шаклга эга бўлган экин майдонларига асалари оилалари чанглатиш учун махсус схема асосида жойлаштирилади.

“А” схема-экин майдонининг кенглиги ва узунлиги 500 метрдан ошмайди. Асалари оилалари бир томонга жойлаштирилади.

“Б” схема-экин майдонининг кенглиги 500 метрдан ошмайди, узунлиги 1000 метр ва ундан кўпроқ бўлади. Асалари оилалари узун томонига қараб алоҳида жойларда ҳар 500-700 метр масофада 50-60 та асалари оиласи жойлаштирилади.

“В” схема-майдон узунлиги 1500 метрдан ошмаса майдоннинг энсиз тарафларига тенг сонли асалари оилаларини жойлаштириш мумкин.

Асаларилар билан ғўза гулларини чанглатиш натижасида шоналардаги пахта оғилги 12 фоизгача, чигитнинг оғирлиги 3 фоизгача, пахта толасининг

салмоғи 40 фоизга ортади. Ғўзанинг умумий ҳосилдорлиги 30-35 фоизгача ошиши мумкин.

Кунгабоқар асалари билан чанглатилганда донадорлиги ошади ва ҳосилдорлик 40-50 фоизгача оширилади.

Шуни яна таъкидлаш жоизки асаларилар ёрдамида боғларни чанглатиш ўз вақтида гуллаб гулчанги кўп бўлган вақтда ўтказилган бўлса, ҳосилдорлиги ошиши билан бирга етиштирилган махсулот таркибида протеин ва қанд миқдори ҳам юқори бўлиши ҳисобига улардан сифатли мева ҳосил бўлади. Боғлар (мавсумига қараб) март, апрел ва май ойларида 10-12 кун давомида гулайди, гуллаш вақтида боғларга асалари оилаларини жойлаштирилиб чанглатилганда боғларни ҳосилдорлиги мева турига қараб қуйидагича бўлади; шафтоли ҳосилдорлиги 1,2 мартага, беҳи 1,43 мартага, олма ҳосилдорлиги 6-8,3 мартагача, олхури ҳосилдорлиги 8-11 мартага, гилос ҳосилдорлиги 15-20 мартагача ва ўрик ҳосилдорлиги 5-5,9 мартагача ошганлиги аниқланган.

Хулоса. Ривожланган давлатлар тажрибалари келиб чиқиб республикамиз қишлоқ хўжалигида асаларилар билан чанглатиш агротехикасини жорий қилиш мақсадга мувофиқ.

Қишлоқ хўжалик экинларини чанглатишни режа асосида амалга ошириш ва чанглатиладиган экин майдонларини танлаш ҳамда экин турининг гуллаш даврига мувофиқ асалари оилалари сонини белгилаш ҳосилдорликни оширишни гарови ҳисобланади.

Республикамиздаги барча турдаги агрокластерлар ва фермер хўжаликларида етиштириладиган қишлоқ хўжалик экинлари ҳамда боғларни асалари билан чанглатиш агротехикасини босқичма-босқич жорий қилиш.

#### Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 12 июндаги 239-сонли “Асаларичилик тармоғини кўллаб-қувватлаш ва қишлоқ хўжалиги экинларини асаларилар билан чанглатишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” Қарори.
2. Методы проведения научно-исследовательских работ в пчеловодстве. /Бородачев А.В., Бурмистров А.Н и др. НИИ Пчеловодства. 2006 год.
3. Асаларилар ва уларни боқиш усуллари. Сидиқов З.М. Тошкент 2021 йил.
4. Асаларичиликда тажриба ишлари. Броварський В., Суяркулов Ш., Я.Бриндзе В., Отченашко В. Тошкент 2021 йил.
5. Асалариларни кўпайтириш ва парваришлаш. Броварський В., Суяркулов Ш. Тошкент 2021 йил.
6. <https://agro-olam.uz>
7. <https://uz.beekeepers.uz>

#### Қўшимча адабиётлар рўйхати

8. Maxamadaliyeva, M. U., Abduhalilova, G. I., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(15), 41-47.

9. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. *Интернаука*, (8-3), 44-46.
10. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA TAMOYILLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 238-240.
11. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.
12. Davlatov, R. (2021). ПАРРАНДАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИДА КОЛИБАКТЕРЁЗ КАСАЛЛИГИНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ЭНРОФЛОКС-10% НИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Scienceweb academic papers collection*.
13. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 9-13.
14. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TALABLARI. *Scientific Impulse*, 1(8), 586-592.
15. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 32-39.
18. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTİKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4 Part 2), 75-78.
19. Davlatov, R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(5), 77-84.
21. БУЗИЛИШЛАРИ, Ё. Улуков Беҳзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идирисхўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қахрамон қизи.

**SESTODOZLAR HAQIDA MA'LUMOTLAR, SESTODOZ  
QO'ZG'ATUVCHILARNING MORFOLOGIK, BIOLOGIK VA  
EPIZOOTOLOGIK HOLATI (Adabiyot ma'lumotlari asosida)**

*Maxamadaliyeva Madinaxon Ulug'bek qizi*  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*  
*chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining*  
*Toshkent filiali talabasi*

*Abduhalilova Gulyuzxon Ismatillo qizi*  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*  
*chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining*  
*Toshkent filiali talabasi*

*Normamatov Ramazon Qo'ziboy o'g'li*  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*  
*chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining*  
*Toshkent filiali assistenti*

**Annotatsiya.** Maqolada qishloq xo'jaligi hayvonlarida parazitlik qiluvchi sestodalarning qo'zg'atuvchilari, ularning morfologiyasi, biologiyasi, epizootologiyasi adabiyot ma'lumotlari asosida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Plathelminthes, Cestoda, Anoplocephalidae, Biogelmint, Moniezia expanza, Moniezia benedini, Echinococcus granulosus, Multiceps multiceps, Taeniarhynchus saginatus.

**Abstract.** The article describes in detail the causative agents of cestodes parasitizing farm animals, their morphology, biology, and epizootology based on literature data.

**Keywords:** Plathelminthes, Cestoda, Anoplocephalidae, Biogelmint, Moniezia expanza, Moniezia benedini, Echinococcus granulosus, Multiceps multiceps, Taeniarhynchus saginatus.

**Аннотация.** В статье подробно описаны возбудители цестод, паразитирующих на сельскохозяйственных животных, их морфология, биология и эпизоотология на основе литературных данных.

**Ключевые слова:** Plathelminthes, Cestoda, Anoplocephalidae, Biogelmint, Moniezia expanza, Moniezia benedini, Echinococcus granulosus, Multiceps multiceps, Taeniarhynchus saginatus.

**Kirish.** Bugungi kunda chorvachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha respublikamizda qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek aholini sifatli oziq-ovqat, go'sht, sut hamda yog' mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom-ashyo sifatida teri, jun va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlashda chorvachilik sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, bunday ijobiy ishlarni to'liq ro'yobga chiqarishda ushbu sohani rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator abiotik, biotik va antropogen omillar ham mavjud. Ular jumlasiga hayvonlar orasida uchrab

turadigan turli parazitlar kasalliklar, jumladan gelmintozlar orasida keng tarqalishga ega bo'lgan va keltiradigan iqtisodiy zarari bo'yicha sestodozlar ayrim tuman va xo'jaliklarda chorvachilikni rivojlantirishga to'siq bo'lib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu kasallikni epizootologik holatini, unga qarshi kurashish va oldini olish choralarini izlab topishni hamda ularni zamonaviy usullarni amaliyotga joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

*Mavzuning dolzarbligi.* Chorvachilik sohasini rivojlantirishda, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, ularni mahsuldorligini oshirish, turli yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish choralarini ko'rib borish jarayonida, ushbu sohani rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillar ham mavjud. Shu jumladan, qishloq xo'jalik hayvonlari orasida uchrab turadigan parazitlar kasalliklar orasida, ayrim gelmintozlar tarqalishi va keltiradigan iqtisodiy zarari bo'yicha muhim o'rin egallaydi. Ushbu kasalliklarga qishloq xo'jalik hayvonlarining sestodozlarini misol keltirish mumkin. Ushbu kasalliklarga moniezioz, exinokokkoz, senuroz, sistitserkoz va boshqa kasalliklarni ko'rsatish mumkin.

*Sestodalar* - yassi gelmintlar tipiga kiradi, ularning tanasi lentasimon va bo'g'inlarga bo'lingan. Sestodalar bosh (skoleks), bo'yincha va tana (strobila) qismlardan tuzilgan bo'lib ularning uzunligi 1 -2 mm.dan 5-10 metrgacha bo'ladi. Sestodalar ham biogelmint bo'lib ularning rivojlanish jarayoni asosiy va oraliq xo'jayinlar ishtirokida amalga oshadi.

Qoramol, qo'y-echki va boshqa kavshovchi hayvonlarda sestodozlarning bir necha turi uchraydi

